

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI**  
**A.AVLONIY NOMIDAGI PEDAGOGIK MAHORAT MILLIY INSTITUTI**



**“TASDIQLAYMAN”**

A. Avloniy nomidagi Pedagogik  
mahorat milliy instituti rektori

A. Ismailov

“ ” 2026 yil



**“MA’QULLANDI”**

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi raisi

A. Yusupov

“ ” 2026 yil

**Pedagogika fanlari bo‘yicha**

**13.00.07 – “Ta’limda menejment” (maktab ta’limi yo‘nalishi)**  
**ixtisosligi bo‘yicha malakaviy imtihon**

**D A S T U R I**

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi**  
**huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2026-yil**  
**“ ” -sonli qarori bilan tasdiqlangan**

Toshkent – 2026

## **Annotatsiya**

13.00.07 – “Ta’limda menejment” (*maktab ta’limi yo’nalishi*) ixtisosligi bo’yicha talabgorning nazariy va kasbiy tayyorgarlik darajasini uning ushbu fanning shakllanishi va rivojlanishi tarixini, umumiy konsepsiyalari va metodologiya masalalarini, manbalarini, shu bilimlar tarmog’ining asosiy nazariy va amaliy muammolarini, mavjud materialni nechog’lik bilishini aniqlab berishi, uning ilmiy adabiyotni, shu jumladan, chet el davriy nashrlarini hamda ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy usullarini qanchalik egallaganligini ko’rsatib berishdan iborat.

### **Tuzuvchilar:**

**Ismailov Abduvali Abdumalikovich**  
*pedagogika fanlari bo’yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent*

**Mirsoliyeva Muhabbat To’xtasinovna**  
*pedagogika fanlari doktori (DSc),  
professor*

**Otamurodov G’olibjon**  
**Ro’zimurodovich**  
*pedagogika fanlari bo’yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent*

**Xudoyberdiyev Eldor Uktamjonovich**  
*pedagogika fanlari bo’yicha falsafa  
doktori (PhD)*

### **Taqrizchilar:**

**Yusupova Dilnoza Fayzullayevna**  
*pedagogika fanlari bo’yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent*

**Innazarov Majid Amonovich**  
*pedagogika fanlari bo’yicha falsafa  
doktori (PhD), dotsent*

*Ushbu dastur institut A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti  
Kengashining 2026-yil 15-yanvardagi navbatdan tashqari 2-son majlisida  
tasdiqlangan*



## SO‘Z BOSHI

Ushbu dastur O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF-158-son, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son, 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son, 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108-son farmonlari, shuningdek 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-son, 2021-yil 25-yanvardagi “Xalq ta’limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4963-son qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi VM-304-son qarori va Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2016-yil 28-yanvardagi 220/2-son qarori bilan tasdiqlangan “Malakaviy imtihonlarni o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizom”ga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib mamlakatimizda ta’lim jarayonini rivojlantirish maqsadida belgilangan konseptual g‘oyalar “Ta’limda menejment” ixtisosligi bo‘yicha ilmiy-tadqiqotlar uchun ilmiy metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Dasturning asosiy maqsadi 13.00.07 – “Ta’limda menejment” (*maktab ta’limi yo‘nalishi*) ixtisosligi bo‘yicha boshqaruv nazariyasining metodlarini ta’lim sohasi menejmenti masalalarini hal qilishga tatbiq etish, pedagogika fanining ta’lim sohasini boshqarishga doir tadqiqotlar metodologiyasi, ta’limda menejmentning rivojlanish tarixi, nazariyalari va g‘oyalari, qiyosiy va strategik menejment, uzluksiz ta’lim va uning alohida turlari faoliyatini tashkil qilish va boshqarish, maktab ta’lim sohasi va tizimi obyektlarini boshqarish tamoyillari, metodlari, tashkiliy va texnologik mexanizmlarini rivojlantirish, ta’lim tizimi alohida turlarining xususiyatlarini hisobga olgan holda umumiy o‘rta ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil qilish va boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, o‘quv-tarbiya jarayonlarini, ta’lim tashkilotini boshqarish jarayonlarini tahlil qilish, modellashtirish, optimallashtirish va takomillashtirish muammolarini nazariy va amaliy jihatdan tadqiq qiladi.

### **“Ta’limda menejment” ixtisosligi bo‘yicha dasturning maqsad va vazifalari:**

Mazkur dasturda 13.00.07 – “Ta’limda menejment” (*maktab ta’limi yo‘nalishi*) ixtisosligi bo‘yicha pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasiga davogar izlanuvchilarning “Ta’limda menejment” fani bo‘yicha



bilimlarini aniqlash va baholash maqsadida o'tkaziladigan imtihon uchun tavsiya etiladigan savollar, mavzu yo'nalishlari, izlanuvchilar javoblarini baholashda e'tiborga olish maqsadga muvofiq bo'lgan jihatlar belgilab berilgan.

"Ta'limda menejment" fanidan imtihon dasturini shakllantirishda maktab ta'lim sohasidagi islohotlar, ta'lim menejmenti va uni amalga oshirayotgan mutaxassis kadrlarga qo'yiladigan zamonaviy talablar hisobga olingan.

"Ta'limda menejment" fanidan imtihon dasturi o'z tarkibiga pedagogika va boshqa ta'lim yo'nalishlarining bozor iqtisodiyoti sharoitida ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish va uni boshqarishga doir dolzarb muammolarni samarali hal etish uchun zarur bo'lgan bilimlarga oid savollarni qamrab olgan.

### **Dasturni o'zlashtirishga qo'yiladigan talablar**

Mazkur ixtisoslikni o'rganish jarayonida talabgor ta'lim menejmentiga oid quyidagi pedagogik tushunchalarni bilish va ko'nikmalarga ega bo'lish zarur:

- ta'lim menejmenti masalalarining mazmun va mohiyati;
- ta'lim sohasida ijtimoiy hamkorlik yo'llari;
- ta'lim muassasasini boshqarishda ijtimoiy omillari;
- rivojlangan xorijiy mamlakatlar maktab ta'lim tizimini boshqarish tajribasi bo'yicha bilim va tasavvurlarga ega bo'lishi;
- maktab ta'limini boshqarish borasidagi davlat siyosatining mohiyati, mazmuni va xususiyatlari;
- maktab ta'limni boshqarishning nazariy asoslarini;
- O'zbekiston Respublikasida ta'lim muassasalarining zamonaviy boshqaruv tizimi haqida ma'lumotga ega bo'lishi;
- O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan maktab ta'lim sohasidagi islohotlarning asosiy yo'nalishlarini;
- maktab ta'limi tizimi menejmenti, uning vazifasi, tamoyillari, boshqaruv yo'llari va usullarini;
- maktab ta'lim muassasasidagi o'quv-tarbiya jarayonini boshqarish yo'llarini;
- ilmiy-tadqiqotlarni boshqarish yo'llarini;
- ta'limda innovatsion boshqaruvni amalga oshirishni;
- maktab ta'lim tizimida marketing faoliyatini boshqarishni;
- maktab ta'lim menejmenti bo'yicha amaliy takliflar tayyorlashni bilishi va ulardan foydalana olishi;
- maktab ta'lim tizimi marketing faoliyatini tashkil etish va boshqarish;
- maktab ta'lim muassasalarini moliyalash vositalarini anglab yetish;
- maktab ta'limni rivojlantirish va davlat ta'lim standartlarini o'rganish;



– ta’lim menejmentida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;

– ta’lim menejmentida iqtisodiy o‘rinishning ta’siri, maktab ta’limni boshqarishda mustaqil qarorlar qabul qila olish, ilmiy mushohada yurita olish, maktab ta’lim tizimiga innovatsiyalar, investitsiyalarni joriy etish va ulardan foydalana olish malakalariga ega bo‘lishi kerak.

**Talabgorning 13.00.07 - “Ta’limda menejment” (maktab ta’limi yo‘nalishi)**  
**ixtisosligidan o‘rganilishi zarur bo‘lgan minimum bilimlar mazmuni**

**1. Ta’lim menejmentining metodologik asoslari.** O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. Ta’lim sohasidagi davlat siyosatining asosiy tamoyillari. Ta’lim tizimi va turlari. Ta’lim menejmenti nazariyalarining rivojlanish bosqichlari. Boshqarish qonuniyatlari va tamoyillari. Ta’lim menejmenti tushunchasi. Umumfalsafiy qonunlar va pedagogik kategoriyalar boshqaruv metodologiyasining asosi ekanligi. Maktab ta’lim muassasalarini boshqarish sohalari: pedagogik jarayonni boshqarish; ta’lim xizmatlari bozorini boshqarish; moliyaviy boshqarish; xodimlarni boshqarish. Boshqarish sohalari qonunlari va uning ahamiyati.

Maktab ta’lim muassasalarini boshqarishning asosiy tamoyillari: yakkaboshchilik va kollegiyalik; ilmiylik; rejalilik; boshqaruv shakl va usullarini takomillashtirish; kadrlarni tanlash va joylashtirish; shaxsiy tashabbus; javobgarlik.

**2. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasidagi davlat siyosati.** 2023-yil 30-apreldagi yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ta’lim va tarbiyaga qaratilgan moddalarning ahamiyatliligi haqida.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 60-sonli farmonida uzluksiz ta’lim tizimini takomillashtirishga oid belgilangan vazifalarning mohiyati.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning nutq va ma’ruzalarida ta’lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirishga doir yangicha yondoshuvlar.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda uning tizimidagi tashkilotlar faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 79-sonli farmonida belgilangan vazifalar mohiyati.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 6097-sonli farmonida ilm fanni rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar mohiyati.

**3. “Ta’limda menejment” fan sifatida. Uning predmeti, maqsad va vazifalari.**

Ta’limda menejment ijtimoiy fan sifatida. Uning ta’lim va jamiyat taraqqiyotida tutgan o‘rni, rivojlanish bosqichlari va ilmiy-nazariy, amaliy istiqbolni belgilash vazifalari. Ta’limda menejment fanining asosiy kategoriyalari va tushunchalari boshqaruv, uzluksiz ta’lim tizimi, uzluksiy kasbiy rivojlantirish tizimi,



menejer, boshqaruv funksiyalari, tarbiya, ta'lim (o'qitish, o'qish), ma'lumot, bilim, strategik reja, ko'nikma va malakalar, rivojlanish. Ta'limda menejment fanining tuzilishi. Ta'limda menejment fanining falsafa, pedagogika, siyosatshunoslik, sotsiologiya, psixologiya, fiziologiya, meditsina va boshqa insonshunoslik fanlari bilan aloqasi.

Ta'limda menejmentni tashkil etishning bir butunligi, ta'limda boshqaruv jarayonlarini tadqiq qilishning o'ziga xos xususiyatlari. Ilmiy pedagogik tadqiqotlarning nazariy va amaliy jihatlarini. Ta'limning alohida turlari (umumiy o'rta ta'lim; maktabdan tashqari ta'lim; kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish)ni, o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim obyektlari (ta'lim muassasalari va jarayonlari)ni boshqarish va qarorlar qabul qilish nazariyasining tamoyillari, metodlari, tashkiliy me'yorlari va texnologik usullarini rivojlantirish va qo'llash asosida boshqarish samaradorligini oshirish maqsadida ta'lim tizimidagi obyektlar va jarayonlarning tizimli aloqasi, faoliyat ko'rsatishi hamda rivojlanishini nazariy va amaliy tadqiq qilish.

**4. Ta'lim menejmentining tadqiqot yo'nalishlari.** Ta'lim menejmenti sohasidagi pedagogik tadqiqotlar metodologiyasi (tadqiqotlarning g'oyaviy asoslari; ta'lim menejmenti taraqqiyotini fan sifatida tadqiq qilish yondashuvlari, ularning mutanosibligi va qo'llanish chegaralari; ta'limni boshqarish muammolarini pedagogik tadqiq qilishning mazmuni, tashkil etilishi va metodlari; ta'lim menejmenti predmet sohasining rivojlanishi; pedagogika fani va ta'lim tizimlarini boshqarish amaliyotining o'zaro dialektik bog'liqligi; ta'limni boshqarish sohasidagi prognostik tadqiqotlarni va pedagogik tadqiqotlar sifatini metodologik asoslash). Pedagogik tizimlarni boshqarish metodologiyasi (ta'limni tashkil qilish va rivojlantirishda boshqarishning o'рни va roli; ta'lim menejmenti fanining obyekti, predmetni tadqiqot metodlari).

Ta'lim tizimlarini boshqarishning nazariyasi va amaliyoti haqidagi pedagogika fanining rivojlanish tarixi (ta'limni boshqarish amaliyotining tarixiy rivojlanishi tahlili; ta'lim menejmentiga oid ilmiy-pedagogik g'oyalar, konsepsiyalar, nazariyalarning vujudga kelishi va rivojlanishi; o'tmishning mashhur pedagoglarining ta'limni tashkil qilish va boshqarish haqidagi pedagogik merosini monografik o'rganish; ta'limni boshqarishga doir pedagogik ma'ruza va atamalarni rivojlantirish).

Ta'limni boshqarish konsepsiyalari (ta'lim boshqaruvini rivojlantirishning ijtimoiy-madaniy shartlari; ta'limni boshqarishning ijtimoiy samaralari; ta'lim sohasini boshqarish tizimlari va mexanizmlarini yaratish va rivojlantirish texnologiyalari; uzluksiz ta'lim tizimini boshqarish; kattalar ta'limini boshqarish; ta'limdagi innovatsion jarayonlarni boshqarish; ta'lim tizimlarini boshqarish; masofaviy va mediata'limni boshqarish nazariyasi va amaliyoti).

Ta'lim tizimida boshqarish va qaror qabul qilishning nazariy asoslari, ta'limni boshqarishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, ta'limda boshqaruv tuzulmalarini loyihalashtirish.

**5. Ta'limni tashkil etish va boshqarishda amaliy menejment.** Ta'limni tashkil etish va boshqarishda nazariyaning boshqarish amaliyoti bilan aloqasi. Maktab ta'limida innovatsion boshqaruv. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida tajriba-sinov boshqarish



faoliyati, ta'lim menejeri kasbiy faoliyatini, shu jumladan, uning mohiyatini, tuzilishini, funksiyalarini tizimli o'zgartirish, ta'limni boshqarish sohasidagi jamoa tashkilotlari faoliyati, ta'limda ijtimoiy sheriklikni boshqarish, korporativ boshqaruv.

**6. Qiyosiy menejment.** O'zbekistonda, dunyoning turli mamlakat va mintaqalarida ta'limni boshqarish nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishning holati, qonuniyatlari va tendensiyalari, ta'limni boshqarish an'analarini taqqoslash, ta'limni boshqarish sohasidagi ilg'or tajribalarni aniqlash; ta'limni boshqarish sohasidagi xorijiy tajribalardan foydalanish orqali milliy ta'lim tizimlarini o'zaro boyitishning imkoniyatlari, asoslanishi va yo'llari.

Ta'limni boshqarishning pedagogik jihatlarini fanlararo tadqiq qilinishi (turli fan sohalarining bilimlari integratsiyasi asosida ta'limni boshqarishning rivojlanish yo'nalishlarini tadqiq qilish; ijtimoiy-siyosiy faoliyat nuqtai-nazaridan ta'lim muassasalari rahbarlarining boshqaruv faoliyatini tadqiq qilish).

Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan boshqarishning tamoyillari, metodlari, tashkiliy me'yorlari va texnologik usullari. Ta'limda menejmentning modellari hamda ta'lim tizimida boshqaruv masalalarini hal qilish va qaror qabul qilish samaradorligini baholash. Maktab ta'lim tizimi rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish nazariyasi va amaliyotini rivojlantirish, ta'lim menejerlarining kasbiy kompetentligini oshirish.

**7. Rahbarning boshqaruv faoliyati samaradorligi (KPI).** Rahbarning ish uslubi. Rahbar imidji. Menejmentda motivlashtirish tushunchasi va nazariyasi. Liderlik va uning o'ziga xos xususiyatlari. Boshqarish tamoyillari va uslubi. Rahbar va hokimiyat. Rahbar va vaqt. Boshqarish vositalari. Ishontirish boshqarishning asosi sifatida. Boshqaruv qarorlari menejer ishining samaradorligi mahsuli sifatida. Ishga doir munosabatlarda muloqot madaniyati. Xodimlarning ijtimoiy xulq-atvorini rag'batlantirish. O'quv-tarbiya jarayonidagi o'z-o'zini nazorat qilish boshqarish vositasi. Mehnatni rag'batlantirish tartibi.

**8. Maktab ta'limida pedagogik jarayonlarni boshqarish.** Maktab ta'lim muassasidagi pedagogik jarayonlar mazmun va mohiyati: Davlat ta'lim standarti, malaka talablari. Maktab ta'lim jarayonida mazmun, o'qish, o'qitish, tarbiyalash asosiy bog'lovchi komponent ekanligi. Muayyan pedagogik fanlar o'rtasidagi bog'lanishlarni idrok qilish, ularni izohlay bilish, mustaqil ravishda umumlashtirish. Pedagogik ta'limning tamoyillari. Asosiy yo'nalishdagi rivojlangan pedagogika, texnika va ilmiy o'qitish. Ish jarayonida sohaviy bilimlar va ularni fanda qo'llanilishi. Ta'lim oluvchilarning o'quv, mehnat faoliyatini tashkil etish. O'quv materialini qabul qilish. O'quv materialini samarali o'zlashtirishning ichki sharoitlari.

**9. Strategik boshqaruv va rejalashtirish.** Ta'lim jarayonini boshqarishga tizimli yondashuv. Strategik boshqarish va rejalashtirish. Xodimlarni tanlash va rejalashtirish. Boshqaruv madaniyati. Strategik rejalashtirishda mamlakat, uning mintaqalari, iqtisodiyot tarmoqlari va sohalarini ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari, maqsadli parametrlari, ustuvor vazifalarini belgilash, chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish.



**10. Ta'limni tashkil etish turlari va shakllari. Innovatsion faoliyatni boshqarish.** Ta'limni tashkil etish haqida tushuncha, uning xilma-xil turlari. Ta'lim turlari: illustrativ (an'anaviy); problemali (muammoli); programmalashtirilgan ta'lim. Ta'limni tashkil etishning asosiy shakllari. Ta'lim maqsadi va o'quvchilarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'quv ishlarining turli shakllaridan foydalanish. Ta'limni tashkil etishning an'anaviy shakli. Dars tiplari va tuzilishi. Hozirgi zamonda dars va darslarni modernizatsiyalash yo'llari. Darsda o'quvchilar o'quv faoliyatini tashkil qilishning yalpi, guruhli va yakka tartibdagi shakllarini uyg'unlashtirish. Ta'limni tashkil etishning noan'anaviy shakllari; o'quv dialogi, munozara, didaktik (ishbop, rolli) o'yinlar, trening, press-konferensiya, o'tkir zehnlilar klubi, musobaqa darslari, auksion, mo'jizalar maydoni, tergovni bilimdonlar olib boradi, bayt-barak va boshqalar. Ma'ruza va seminar mashg'ulotlari, konsultatsiyalar, ekskursiyalar, praktikumlar, konferensiyalar. Ta'limni tashkil etish shakllarini rivojlantirish istiqboli.

Innovatsion faoliyat. Maktabda innovatsion faoliyatni tashkil etish va boshqarish: ta'lim mazmuni, o'qitish texnologiyalari, pedagoglar kasbiy mahratini oshirish hamda ta'lim xizmatlari ko'rsatish borasidagi innovatsiyalar.

**11. Ta'limni tashkil etish va boshqarishda boshqaruv maqsadi va funksiyalari.**

Boshqaruv maqsadi, maqsad turlari. Maqsadlar kaskadi (pog'onalari). Boshqarish funksiyalari. Boshqaruv usullari. Boshqaruv usullari to'g'risida tushuncha. Boshqarishning tashkiliy-ma'muriy, iqtisodiy, ijtimoiy va psixologik usullari. O'zbekiston Respublikasida maktab ta'lim tizimidagi islohotlar. Ta'lim tizimini isloh qilish bosqichlari. Maktab ta'lim tizimi va uni boshqarish. Menejer. Menejer va rahbarlik uslubi. Boshqaruv pog'onasi. Boshqaruv uslubi. Rahbarning ish uslubi. Rahbar fazilatlar. Rahbar madaniyati. Boshqaruv qarorlarining tasnifi. Boshqaruv qarorlari mohiyati va ularga qo'yiladigan talablar. Boshqaruv qarorlari elementlari. Umumiy qaror, strategik qaror, taktik qaror. Maxsus qaror va boshqalar. Qaror qabul qilish. Qarorlarni ishlab chiqish va uni qabul qilish. Qarorlarni ijrosini uyushtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish. Vaziyatni tahlil qilish. Qarorlarni bajarish. Qarorlarning bajarishga rahbarlik qilish.

**12. Ta'limni tashkil etish va boshqarishda menejment funksiyasi.** Menejment funksiyasi: rejalashtirish. strategik rejalashtirish. Strategiya va strategik boshqaruv tushunchasi. Strategik rejalashtirishni jarayoni. Maqsadlarni tanlash. Strategik rejani tuzilishi. Kuchli va zaif tomonlar, tashqi muhitni tahlil etish va baholash. Marketing, bozor va bozorni o'rganish. Strategik alternativlarni o'rganish. Strategiyani tanlash. Nazorat haqida tushuncha. Nazoratning mazmuni va mohiyati. Asosiy nazorat turlarini amalga oshirish. Oldindan nazorat, joriy nazorat, yakuniy nazorat. Oldindan nazoratni olib borishda inson, moddiy va moliyaviy resurslar. Nazorat jarayoni: standartlarni belgilash, erishilgan natijalarni standart bilan o'lchash. Nazoratda hatti-harakatlar bo'yicha tavsiyalar.

Ta'lim muassasasi rahbari – lider. Rahbarlikni balanslash. Majburlashga asoslangan boshqarish (qo'rqitish, kuchli va kuchsiz tomonlari). Urf-odatlar, an'analar orqali ta'sir etish. O'rnak bo'lish orqali ta'sir etish. Ishtirok etish va ishontirish orqali ta'sir etish. Rahbarning kuchli va kuchsiz tomonlari.



**13. Ta'limni tashkil etish va boshqarishda rahbarning boshqaruv kompetentligi.** Ta'limni tashkil etish va boshqarishda rahbarning boshqaruv kompetentligini asosiy komponentlari. Rahbarning boshqaruv sohasi bo'yicha ilmiy-nazariy bilimga egaligi. Ta'lim va tarbiyaviy faoliyatini me'yoriy talablar asosida tashkil eta olishi. Boshqalar fikrini hurmat qilishi va uni namoyish eta olishi. Boshqalar fikriga ta'sir etuvchi (ishontira olish, to'g'rilash, fikrni qarama-qarshi qo'yish) muloqot maneralarini tanlay olishi. O'zaro munosabatlarni o'rnatishga qaratilgan (qo'llab-quvvatlash, konstruktiv, ruhlantiruvchi) muloqot maneralarini tanlay olishi. Ta'limiy va tarbiyaviy faoliyatini tashkil etishda davlat organlari, jamoat tashkilotlari va tinglovchilar bilan me'yoriy-huquqiy munosabatlarga kirisha olishi. Ta'lim sifatini oshirish maqsadida global tarmoqdagi o'qituvchilarning turli pedagogik hamjamiyatlarida ishtirok etishi.

**14. Pedagogik risklarni boshqarish va qarorlar qabul qilish.** Pedagogik risklar va ularni boshqaruv jarayoniga ta'siri. Muomala madaniyati. Munosabat, qayta bog'lanish va uning turlari. Qayta bog'lanishdan maqsad va xavf omillari. Qayta bog'lanish bo'yicha tavsiyalar. Samarali muloqotga to'siqlar. Boshqaruv samaradorligi. Boshqaruv samaradorligi tushunchasi va uning mezonlari. Boshqaruv resurslari va samaralari. Boshqaruv harajatlari. Boshqaruv samaradorligi ko'rsatkichlari. Nizolarni boshqarish. Nizo, ularning kelib chiqish sabablari va turlari. Ichki nizo. Shaxslararo nizo, shaxs va guruh o'rtasidagi nizo. Guruhlararo nizo. Ochiq, yopiq, obyektiv, subyektiv, konstruktiv nizolar. Nizolarni boshqarish va ularni bartaraf qilish yo'llari. Stress va uni boshqarish.

**15. Ta'lim sifati va uni baholashning xalqaro mezonlari.** Ta'lim sohasida test sinovin xizmati (ETS – Educational Testing Service, AQSh). O'quv yutuqlarini baholash xalqaro Assotsiatsiyasining sekretariati (IEA, Niderlandiya). O'quv yutuqlarini baholash xalqaro Assotsiatsiyasining natijalarni qayta ishlash markazi (DPC IEA – Data Processing Center IEA, Germaniya). Umumta'lim maktablari o'quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo'yicha baholash xalqaro tadqiqot TIMSS (Trends in Mathematics and Science Study). O'quvchilarning ta'lim yutuqlarini baholash xalqaro dasturi PISA (Programme for International Student Assessment). Matnni o'qish va tushunish sifati xalqaro tadqiqoti PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study). Ta'lim berish va o'qitish tizimlari bo'yicha xalqaro tadqiqot (TALIS).

**16. Ta'lim sohasini boshqarishning nazariyasi va amaliyoti haqidagi pedagogika fanining rivojlanish tarixi.** Al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning umumpedagogik hamda ta'limni tashkil etish va boshqarishga oid g'oyalari. XIV-XVI asrlarda Movarounnahrda Amir Temurning markazlashgan mahalliy davlatining paydo bo'lishi va uning ilm-fan ma'rifatning taraqqiy etishidagi roli. Amir Temur davrida maktab va madrasalarda ta'lim-tarbiya xususiyatlari. Alisher Navoiyning maktab va madrasalarni tashkil etish va rivojlantirishdagi faoliyati. XVII-XVIII asr va XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon va boshqa xonliklarda qizlar maktablari. Jahon Otin Uvaysiy va uning qizlar maktabi. Qizlar maktablarining o'ziga xosligi va boshqaruv uslubi.



XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Turkistonda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etilishi va boshqarishda jadidchilik harakati. Yangi usul maktablarining paydo bo'lishi. Munavvar Qori, A.Avloniy, Behbudiylarning yangi usul maktablarini tashkil etish borasidagi faoliyati. Abdulla Avloniyning "Turkiy Guliston yoxud axloq" asarida ta'lim-tarbiyani tashkil etish va boshqarish haqida.

1917-1990 yillarda O'zbekistonda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari.

**17. Maktab menejmenti sohasidagi ilg'or xorijiy tajribalar va tendensiyalar.** Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim tizimi va maktablarda ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish amaliyoti. Jahon mamlakatlaridagi zamonaviy-ijtimoiy bilimlar tizimida ta'limda menejment fani va uning asosiy yo'nalishlari. AQSh, Yaponiya, Germaniya, Angliya, Turkiya, Singapur, Janubiy Koreya va boshqa rivojlangan mamlakatlar ta'limida menejmentni tashkil etishning mazmuni va taraqqiyoti.

### **13.00.07 – Ta'limda menejment (maktab ta'limi yo'nalishi) ixtisosligi bo'yicha malakaviy imtihon savollari**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-son Farmonining mazmuni, ustuvor yo'nalishlari, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarishga oid masalalar.

2. Boshqaruvning umumiy qonuniyatlari, tamoyillari va funksiyalarining mazmuni hamda ularning ta'lim muassasasi faoliyatini samarali tashkil etishdagi o'rni va ahamiyati.

3. Ta'lim tashkilotining ichki va tashqi muhitini tahlil qilishda SWOT-tahlil metodining mohiyati, qo'llash bosqichlari hamda uning boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi ahamiyati.

4. Ta'lim muassasasi rahbarining imidji va muloqot madaniyatining boshqaruv samaradorligini oshirishdagi o'rni hamda pedagogik jamoa faoliyatiga ta'siri.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-son Farmonida belgilangan inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish deb nomlangan birinchi ustuvor yo'nalishida qanday maqsadlar nazarda tutilgan?

6. Davlat ta'lim standarti tushunchasi, uning mazmuni va ta'lim sifatini boshqarishdagi me'yoriy-huquqiy asos sifatidagi o'rni hamda ahamiyati.

7. Zamonaviy menejmentda kouching metodining mohiyati, asosiy tamoyillari va uning ta'lim muassasasida boshqaruv samaradorligini oshirishga ta'siri.



8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi 60-son Farmonida belgilangan ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash va sohani yangi bosqichga olib chiqish deb nomlangan ustuvor yo'nalishida sohani rivojlantirish uchun qanday maqsadlar nazarda tutilgan?

9. TALIS tadqiqotining mazmuni, maqsadi va vazifalarini yoritib bering hamda ta'lim tashkilotlarida boshqaruv samaradorligini oshirishda ushbu tadqiqot natijalarining ahamiyati.

10. SMART texnologiyasining mohiyati, asosiy mezonlari va undan ta'lim tashkilotini samarali boshqarishda foydalanish imkoniyatlari.

11. Strategik menejment tushunchasi, uning asosiy yo'nalishlari hamda ta'lim tashkilotini boshqarish jarayonidagi o'rni va ahamiyati.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktyabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 358-son Qarorida sun'iy intellekt texnologiyalaridan maktab boshqaruvi samaradorligini oshirishda foydalanish masalalari.

13. PISA xalqaro baholash dasturining mohiyati, maqsadi va asosiy yo'nalishlarini izohlang hamda o'quvchilar bilimini baholashda qo'llaniladigan mezonlari.

14. Maktabda ichki nazoratning asosiy maqsadi, shakllari va usullarini yoritib bering hamda uning ta'lim sifatini oshirish va xodimlar faoliyatini samarali boshqarishdagi o'rni.

